



**INSON HUQUQLARI VA JAMIYAT HAYOTI, YOXUD YOSHLAR BILAN
 QURILAYOTGAN YANGI O'ZBEKISTON**

Qudratov Javohir Komilovich

Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya Universiteti

“Xalqaro huquq” fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada inson huquqlari va jamiyat hayoti, O'zbekiston va dunyo miqyosida yoshlarga bo'lgan e'tibor va ularning jamiyat hayotida tutgan o'rni shuningdek, bugungi davrning zamонавија texnika-texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi, yoshlarga ta'siri haqida so'z boradi.*

Аннотация: в данной статье рассказывается о правах человека и общественной жизни, о внимании к молодежи в Узбекистане и мире и их роли в жизни общества, а также о стремительном развитии современных технологий и их влиянии на молодежь.

Annotation: *this article talks about human rights and social life, the attention paid to young people in Uzbekistan and the world and their place in society, as well as the rapid development of modern technologies and their impact on young people.*

Kalit so'zlar: *inson huquqlari, jamiyat, yangi O'zbekiston, inson qadri, konstitutsiya, zamонавија texnikalar, rivojlangan davlatlar, ta'lim tizimi, siyosat, ijtimoiy hayot.*

Ключевые слова: *права человека, общество, новый Узбекистан, человеческое достоинство, конституция, современные технологии, развитые страны, система образования, политика, общественная жизнь.*

Key words: *human rights, society, new Uzbekistan, human dignity, constitution, modern technologies, developed countries, education system, politics, social life.*

Bugungi zamонавија jamiyatda inson huquqlari har bir alohida shaxsning qadr-qimmati va erkinliklarini o'zida ifoda etadi. Shuni ta'kidlash lozimki, yangilanayotgan O'zbekistonda inson-jamiyat-davlat prinsipi asosida ishlar olib borilyapti. Albatta har bir davlat uchun o'z fuqarolarining manfaatlari, ularning huqu qlari, ijtimoiy holati haqida qayg'urishlari lozim va shart. Barcha inson huquqlari bir butun bo'lib, ular bir biri bilan chambarchas bog'liq. Misol tariqasida aytish mumkinki, yashash huquqi, qonun oldida tenglik, so'z erkinligi huquqi, bularning barchasi shundan dalolat beradi. Inson huquqlari- insonning davlatga munosabati bo'yicha huquqiy maqomi, uning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, siyosiy qarashlarini o'zida namoyish etadi. Shuningdek, jahon darajasida inson huquqlarini himoya qilish borasida ko'plab tashkilotlar o'z qarashlarini namoyon qiladi. Misol tariqasida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini aytib o'tish mumkin. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi deklaratasiya 1948-yil 10-dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasi tomonidan qabul qilingan. Deklaratsiya asosan 30 ta moddadan iborat holda tuzilgan



CANADA



CANADA

va Birlashgan Millatlar tashkilotiga a'zo davlatlardagi inson huquqlari qonun yo'li bilan himoya qiladigan xalqaro huquqiy hujjat hisoblanadi.³⁵

Jamiyatda yuz berayotgan holatlar va keyinchalik yuz berishi mumkin bo'lgan voqeа va hodisalar inson huquqlari va uning jamiyatdagi o'rni bilan yaqqol namoyon bo'ladi. Yangi davrda O'zbekistonda, Amerikada yoki Yevropa Ittifoqi davlatlarida ham inson huquqlari faqat insonlarga erkinlik beribgina qolmay, balki ma'lum miqdorda burch va mas'uliyat ham yuklaydi. Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan siyosat, yoshlarga bo'lgan e'tibor, ularga yaratilayotgan shart-sharoitlar kelajakda yoshlarni bilimdon, zukko, o'z kasbiga mas'uliyatli, har jabhada tashabbuskor bo'lib kamol topishiga zamin yaratadi.

Jamiyatda farovonlikni oshirish va rivojlantirish borasida huquqiy tizim asosiy vazifani bajaradi.

"Huquqiy tizim"- ijtimoiy munosabatlarni, shu bilan bирgalikda har bir bir davlatdagi huquqiy rivojlanish darajasini tavsiflab beruvchi tarkibiy qismlarni birlashtiradi.³⁶

O'zbekistonda inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning shakllanishi mamlakatni isloh qilish va modernizatsiyalash jarayonlari doirasida davlat va jamiyatning barcha sohalarida demokratik islohotlar o'tkazish amalga oshirildi. Jumladan "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, unga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Bugungi kunda O'zbekistonda aholi savodxonligini oshirish, yoshlar bilan samarali va doimiy ishlash yoshlarni ijtimoiy tarmoqlardan unumli foydalanishini ta'minlash, bu borada ularning ustidan nazoratni kuchaytirish shu bilan bирgalikda rahbatlantirish juda muhim masalalardan biri hisoblanadi. Chunki zamonaviy davrda har bir yosh texnologiyalardan foydalanadi va doimiy ravishda bu holat kuzatiladi. Bu jarayonda yoshlarni texnologiyalardan kerakli maqsadda foydalanishga mentalitet hosil qilish muhim. Zamonaviy texnologiyalar inson uchun ikki xil maqsadda ishlaydi. Bular birinchisi salbiy natijalarga olib keladi ya'ni yoshlarda texnika va texnologiyalardan foydalanish borasida ko'nikma shakllanadi va bu holatda ijtimoiy tarmoqlar, turli xil o'yinlar yoshlarni o'ziga juda tez fursatda o'rgatib qo'yadi. Inson esa kun davomida ijtimoiy tarmoqlarga, o'yinlarga shu darajada berilib ketgandan kunning qanchalik tez o'tib ketganini sezmay qoladi. Zamonaviy dunyoda kuchli, qat'iyatli, irodali insonlargina muvaffaqiyat yo'llarini topishi va unga erishishlari mumkin bo'ladi. Rivojlangan davlatlarda ayniqsa iqtisodiyot, sanoat, ilm-fan sohasida erishilayotgan yutuqlar shunchaki emas. Bularning orqasida inson mehnati, qat'iyati irodasi mujassamdir. Yangi O'zbekistonda har bir yosh uchun kattadan-katta qulayliklar yaratilgan. O'zbekistonda har bir viloyat va shaharlaridan

³⁵ O'zbekiston Yuridik ensiklopediyasi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi "Adolat" nashriyoti.

³⁶ Saidov A, Tojixonov U, Davlat va huquq nazariyasi.ikki jildli . 2-jild. 2001- yil

tortib chekka-chekka qishloqlarigacha ta’lim tizimi yuqori darajada rivojlanyapti. Siyosiy-huquqiy madaniyatni rivojlantirish,yoshlarni katta qismini oliygohlardan o‘qitish, xorijiy davlatlarda o‘qiyotgan talabalarni qo‘llab-quvvatlash, O‘zbekistodagi talabalarni xorijiy davlatlarga o‘qishga yuborish borasida ham moliyaviy ham boshqa tomondan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yangi qarorlar qabul qilish, yangi loyihibar ishlab chiqish juda muhim va bugungi kunning dolzARB masalalaridan biri hisoblanadi. Mustaqil demokratik yo‘ldan dadil odimlayotgan O‘zbekistonning eng ulug‘ maqsadi, avvalo, xalqimiz manfaatlari yo‘lida ko‘zlangan islohotlarni amalga oshirishga qaratilgani bilan e’tiborlidir. Bu jihatlar Konstitutsiyamizda ham mustahkamlab qo‘yilgan.³⁷

Bir so‘z bilan aytganda, yangi O‘zbekistonning demokratik o‘zgarishlarga sodiqligini namoyish qilish, yurtimizda kechayotgan ulkan o‘zgarishlar va yangilanishlar davrida avvalo inson huquqlarini himoya qilish va rag‘batlantirish birlamchi vazifalardan sanaladi.

FOYDALANAYOTGAN ADABIYOTLAR:

1. H.T. Odilqoriyev “Davlat va huquq nazariyasi” (darslik) T.; “Sharq” – 2009
2. Kirish tartibi: <https://vaqt.ucoz.com/publ/huquq/11>
3. Kirish tartibi: <https://yuz.uz/uz/news/insonhuquqlari>
4. birinchi prezidentimiz I.A. Karimov “yuksak ma’naviyat va yengilmas kuch” asari

³⁷<https://vaqt.ucoz.com/publ/huquq/11>